

«Kelishilgan»

Chirchiq (Yangiyo‘l)
shahridagi UMS MCHJ
Markaziy ofis rahbari

Abdumajitov R. T.

« » 2026 г.

«Tasdiqlayman»

“UMS” MCHJ Ma’muriy
direktori

Kamalidinov M.R.

« 01 » 2026 г.

Texnik topshiriq

Binoning fasadi va unga tutash hudud, OPiO zali hamda Markaziy Ofisning (MO) 1-qavatidagi yordamchi xonalar dizayn loyihasini, shuningdek, quyidagi ishlar uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish:

*«UMS MChJ xizmat ko‘rsatish markazi binosi va unga tutash hududni kapital ta’mirlash»,
manzil: Toshkent viloyati, Yangiyo‘l sh., Sh. Rashidov ko‘chasi, 2-uy*

1. Buyurtmachi bo'linmasining nomi	Ma'muriy departament, Binolar, qurilish va ko'chmas mulkni ekspluatatsiya qilish bo'limi, MChJ «UMS»
2. Ob'ekt nomi:	Binoning fasadi, OPiO zali va Markaziy Ofisning (MO) 1-qavatidagi yordamchi xonalar dizayn loyihasini, shuningdek, quyidagi ishlar uchun loyiha-smeta hujjatlari to'plamini ishlab chiqish: «UMS MChJ xizmat ko'rsatish markazi binosi va unga tutash hududni kapital ta'mirlash».
3. Ob'ekt manzili:	Toshkent viloyati, Yangiyo'l sh., Sh. Rashidov ko'chasi, 2-uy
4. Loyihalashtirish asoslari	Rivojlanish strategiyasi; rahbariyat qarori.
5. Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar	Binoning fasad maydoni = *360 kv.m. OPiO zalining va 1-qavatdagi yordamchi xonalarining kapital ta'mirlash maydoni = *150 kv.m. Markaziy ofisning (MO) 1 va 2-qavatlaridagi ichki xonalarning umumiy kapital ta'mirlash maydoni = *320 kv.m. *Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar taxminiy tarzda keltirilgan bo'lib, dizayn loyihasi va loyihalashtirish-smeta hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida aniqlanishi mumkin.
6. Loyihalashtirish bosqichlari	Loyihalashtirishning quyidagi bosqichlarini nazarda tutish: 1. Binoning fasad dizayn loyihasini ishlab chiqish. 2. OPiO zalining va Markaziy Ofisning (MO) 1-qavatidagi yordamchi xonalar dizayn loyihasini ishlab chiqish. 3. Eskiz loyihasini tayyorlash. 4. Ishchi hujjatlarni ishlab chiqish. 5. Loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash. 6. Mualliflik nazoratini amalga oshirish. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarning eng maqbul variantlarini tanlash maqsadida kamida uchta eskiz arxitektura-qurilish va rejalashtirish yechimlarini tasdiqlash uchun taqdim etish, ularning solishtirma afzalliklarini va solishtirma qiymatini asoslab berish talab etiladi.
7. Loyihalashtirish muddati va to'lov shartlari	Dizayn-loyihani ishlab chiqish hamda barcha bo'limlarni o'z ichiga olgan PSD to'plamini tayyorlash – Buyurtmachining loyiha topshirig'ini tasdiqlagan kundan boshlab 45 (qirq besh) kalendar kuni davom etadi. Dizayn-loyihaning barcha bo'limlari va PSD to'plamining yakuniy ishlab chiqilishidan oldin majburiy ravishda Buyurtmachi bilan kelishilishi talab etiladi. 1-qavatdagi OPiO zal va yordamchi xonalar dizayn-loyihasini ishlab chiqish hamda to'liq loyiha-smeta hujjatlari to'plamini tayyorlash bo'yicha bajarilgan ishlar uchun to'lov Buyurtmachi tomonidan Podryadchikning tegishli majburiyatlari to'liq bajarilganidan so'ng amalga oshiriladi, tomonlar tomonidan bajarilgan ishlar aktlari imzolanganidan va hisob-faktura taqdim etilgan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida. Yakuni to'lov bajarilgan ishlar aktlari asosida, ekspert organining ijobiy xulosasi olingan va u "Shaffof Qurilish" onlayn-platformasining yagona ekspert xulosalari reyestriga kiritilganidan so'ng amalga oshiriladi.
8. Buyurtmachi ish rejimi	Ish haftasi besh kunlik bo'lib, dam olish kunlari – shanba va yakshanba; bayram kunlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq belgilangan. Ish vaqti dushanbadan jumagacha – soat 09:00 dan 18:00 gacha. Tushlik tanaffusi: 13:00 dan 14:00 gacha. Podryadchik ushbu ish jadvalini Shartnoma ijrosi jarayonida hisobga olishi shart.

<p>9. Dizayn loyahasiga qo'yiladigan asosiy talablar</p>	<p>Ishlarni bajaruvchi shartnoma asosida dizayn loyahasini ishlab chiqishda zamonaviy pardoqlash materiallari va mahsulotlarini qo'llashni ta'minlashi shart, ular uzoq muddat xizmat qilishga mo'ljallangan bo'lishi va yong'inga qarshi, ekologik va sanitariya normalariga javob berishi kerak. Shu bilan birga, bajarilgan ish/ko'rsatilgan xizmat natijasi Buyurtmachining funksional talablariga, uslubiy did va istaklariga mos kelishi, arxitektura uslubini hisobga olgan holda zamonaviy dizayn yechimlari, xususan high-tech (hay-tek) uslublariga mos keluvchi konsepsiya ishlab chiqishni o'z ichiga olishi, shuningdek texnik talablarni hisobga olishi zarur.</p> <p>Loyihada qo'llaniladigan materiallar va mebellarning batafsil spetsifikatsiyasi bo'lishi kerak, unda iloji bo'lsa ishlab chiqaruvchi yoki yetkazib beruvchining markasi, turi, shtrix va QR kodlari, katalog raqamlari va boshqa ma'lumotlar, shuningdek uning aloqa ma'lumotlari (manzil, telefon, sayt) ko'rsatiladi. Spetsifikatsiyada dizayn loyhasida qo'llaniladigan materiallar hajmi, jumladan mebel bo'yicha ham, iloji bo'lsa, birlik narxi bilan ko'rsatilishi lozim.</p> <p>Amalga oshirish bosqichida mualliflik nazorati bajarilishi shart bo'lib, bu jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ob'ektning funksionalligi va qulayligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ishlarni bajaruvchi mualliflik nazorati amalga oshirilganda qurilish ishlarining tasdiqlangan dizayn loyahasiga mosligini nazorat qilishni ta'minlaydi.</p>
<p>10. Loyiha-smeta hujjatlariga qo'yiladigan talablar</p>	<p>Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va qurilish sohasidagi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshirilishi lozim. PSD ishlab chiqishda zamonaviy qurilish materiallari, mahsulotlar va uskunalardan foydalanish, Buyurtmachi bilan oldindan kelishilgan holda amalga oshiriladi.</p> <p>Jamlangan smeta hisoboti amaldagi narxlar bo'yicha tayyorlanadi, materiallar, mahsulotlar va uskunalarga bo'lgan bozor kon'yunkturasi o'rganilgan holda, inflyatsiya xavflari hisobga olinadi. Loyiha kam harakatlanuvchi guruhlar uchun qulay muhit yaratish va erkin kirishni ta'minlash bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Qurilish ishlarining butun davri uchun mualliflik nazoratini o'tkazish.</p>
<p>11. Dizayn-loyihasi bo'yicha hujjatlar tarkibi</p>	<p>Dizayn-loyihasi quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Defektlar jadvali. • Chizmalar. • Vizualizatsiya. • Pardoqlash materiallari, mebel va uskuna spetsifikatsiyasi. • Izohli yozuv (tushuntiruvchi ma'lumotnoma). <p>Dizayn-loyihasi quyidagi chizmalarni o'z ichiga olishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Qayta rejalashtirishdan keyingi devorlar rejasi (quriladigan bo'linmalar va konstruksiyalar). • Mebel joylashuvi rejasi. • Shift rejasi, loyihada ishlatiladigan barcha materiallarning batafsil o'lchamlari bilan. • Pol rejasi va ekspikatsiyasi, loyihada ishlatiladigan barcha materiallarning batafsil o'lchamlari bilan. • Muhandislik tizimlari: rozetkalar, kalitlar va boshqa elektr jihozlari joylashuvi. • Elektr jihozlarini o'rnatish va montaj rejasi, shu jumladan barcha xonalarda ventilyatsiya va konditsioner tizimi. • Sanitariya texnikasi jihozlarini o'rnatish rejasi. • Isitish jihozlarini o'rnatish va montaj rejasi. • Devorlarning ko'rsatma rejasi (razvertka). • Devorlarni pardoqlash rejasi, loyihada ishlatiladigan barcha materiallar va mebelning batafsil o'lchamlari bilan. • Boshqa qo'shma bo'limlar.

12. Loyiha hujjatlari tarkibi	<p>TOM 1: Umumiy izohli yozuv, unda arxitektura-shaharsozlik, muhandislik-texnik, konstruktiv, iqtisodiy, texnologik va boshqa loyiha yechimlari asoslangan holda bayon etiladi; asosiy ekspluatatsiya va hajm-rejalashtirish ko'rsatkichlari (qurilish hajmi, hisob-kitob va umumiy maydon, ob'ekt qurilish qiymati); shuningdek, Qurilish tashkiloti loyihasi (POS).</p> <p>TOM 2:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. OPiO zali va rahbar kabineti ichki interyeri eskiz dizayni; 2. Arxitektura yechimlari (AR); 3. Konstruktiv va hajm-rejalashtirish yechimlari; 4. Elektr yoritish (EO); 5. Suv ta'minoti va kanalizatsiya (VK); 6. Isitish va ventilyatsiya (OV); 7. Strukturalangan kabelli tarmoq (SKS); 8. Texnologik yechimlar (TX); 9. Yong'in va xavfsizlik signalizatsiyasi hamda videonazorat; 10. Obodonlashtirish va tashqi hududni tartibga solish; 11. Kamharakatli guruhlar uchun qulay muhit yaratish va erkin kirishni ta'minlash bo'yicha tadbirlar bo'yicha RPlar; 12. Qurilish-montaj ishlariga oid lokal-resurs smetalari.
13. Arxitektura yechimlariga qo'yiladigan asosiy talablar	<p>Tashqi bezak: Binoning fasadi va yon devorlar – oynali bo'lishi, energiyani tejavchi qorong'ilangan oynadan tayyorlanishi, ichiga yoritish elementlari kiritilishi, zamonaviy materiallar bilan bezak kombinatsiyasida (dekor, hay-tek va boshqalar). Binoning fasadi uchun umumiy yoritishni ta'minlash ko'zda tutiladi.</p> <p>Ichki hovli fasadi – zamonaviy materiallar bilan (dekor, hay-tek qoplama va boshqalar) bajariladi. Derazalar – PVX "Termoprofil 7000"dan. Shuningdek, loyiha doirasida kotelxona qo'shimcha binosini, chegara to'siqlarini buzish (demontaj) ko'zda tutiladi.</p> <p>Kirish eshiklari – avtomatik (ochiladigan), Thermo 7000 termoprofilidan, energiyani tejavchi qorong'ilangan oynadan tayyorlanadi.</p> <p>Ichki bezak: Xonalar orasidagi eshiklar – dizayn loyihasiga muvofiq.</p> <p>1-qavat ichki bezagi: Devorlar – dizayn loyihasiga muvofiq. Shiftlar – dizayn loyihasiga muvofiq. Pol – dizayn loyihasiga muvofiq.</p>
14. Muhandislik uskunalari va muhandislik-texnologik ta'minot tarmoqlariga qo'yiladigan asosiy talablar	<p>Ichki yoritish – yong'inga qarshi ishlash talablari bilan, kam quvvat sarflovchi, LED turidagi yoritgichlar va boshqa mos vositalar bilan, Buyurtmachi bilan kelishilgan dizayn loyihasiga muvofiq bajariladi.</p> <p>Binoning isitilishi – tabiiy gazda ishlaydigan zamonaviy ikki energiya samarali isitish kotelinini o'rnatish, mavjud issiqlik tizimi quvurlari va radiatorlarini zamonaviy turdagi radiatorlarga almashtirish va ko'chirish, xonalar rang palitrasi hisobga olinadi; quvurlar – PPR turida.</p> <p>Suv ta'minoti – sovuq va issiq suv (XVS, GVS), zamonaviy PPR quvurlaridan ta'minlash; GVS – «Ariston» turidagi suv isitgichlaridan foydalanish.</p> <p>Suvni tozalash va kanalizatsiya – loyiha hisob-kitoblariga muvofiq. (Majburiy tartibda binoning tomidan suv oqimini nazorat qilish uchun tizimning tekshiruv inspeksiyasi amalga oshiriladi).</p>
15. Yong'in xavfsizligi bo'yicha talablar	O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan me'yorlarga muvofiq yong'in xavfsizligi tizimini loyihalash. O'rnatiladigan uskunalar hamda yong'inga qarshi himoya vositalarini Buyurtmachi bilan oldindan kelishish.
16. Xavfsizlik signalizatsiya tizimiga qo'yiladigan asosiy talablar	Binoning xavfsizlik signalizatsiyasini amaldagi me'yorlarga muvofiq loyihalashtirish. O'rnatiladigan uskunalar va xavfsizlik signalizatsiya vositalari Buyurtmachi bilan oldindan kelishilishi zarur.

17. Obodonlashtirishga qo'yiladigan talablar	dizayn loyihasiga muvofiq
18. Loyiha hujjatlarini kelishish bo'yicha talablar	Yangiyo'l shahridagi G'UASdan ruxsatnoma olish
19. Smeta hujjatlari bo'yicha talablar	Smeta hujjatlarining hajmi O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yorlari va qoidalari hamda qonunchiligiga muvofiq bo'lishi lozim. Yig'ma smeta hisob-kitobi joriy narxlarda, materiallar, buyumlar, uskunalar va boshqa resurslar bo'yicha bozor kon'yunkturasini o'rganish hamda inflyatsiya xatarlarini inobatga olgan holda bajarilishi kerak.
20. Ta'qdim etiladigan hujjatlarning tarkibi va to'liqligi bo'yicha talablar	<p>Dizayn-loyiha: Ijrochi ishlar natijalarini A3 formatdagi albomlar ko'rinishida 3 (uch) nusxada (asl nusxalar) qog'oz shaklida hamda elektron shaklda qattiq axborot tashuvchida (pdf va dwg formatlarida) rasmiylashtirishi shart. Dizaynning grafik qismini batafsil chizmalar ko'rinishida (xonalar rejasi mebellar joylashuvi bilan, devorlar, shiftlar va pollarning pardoatlanishi, pardozi materiallarini kesish sxemalari, elektr o'tkazgichlari va yoritishning reja-sxemalari va boshqalar), shuningdek tutash bo'limlar va interyer xonalarini bezashda qo'llaniladigan pardozi materiallari hamda mebellar bo'yicha spetsifikatsiyani (materiallarga bo'lgan ehtiyoj) A3 formatdagi albom ko'rinishida 3 (uch) nusxada taqdim etish.</p> <p>Loyiha-smeta hujjatlari: loyiha hujjatlarining bo'limlari tarkibi va mazmuni O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan qurilish sohasidagi qonunchilik, qurilish me'yorlari va qoidalarga muvofiq, mahalliy iqlim sharoitlari, seysmik holat hamda yong'inga qarshi, sanitariya-gigiyena, ekologik va boshqa amaldagi talablarni inobatga olgan holda shakllantirilishi lozim. Buyurtmachiga belgilangan tartibda kelishilgan loyiha-smeta hujjatlari qog'oz shaklida 3 (uch) nusxada hamda elektron tashuvchida 1 (bir) nusxada quyidagi turlar va formatlarda taqdim etiladi: Loyiha hujjatlari (matnli qism): Word hujjati: pdf; AutoCAD Loyiha hujjatlari (sxematik (grafik) qism): pdf; AutoCAD Smeta hujjatlari elektron formatda (Excel) hamda qog'oz shaklida 3 (uch) nusxada taqdim etiladi.</p>

Izoh: Yuqorida sanab o'tilgan barcha xarajatlar Pudratchi zimmasiga yuklatiladi.

СОГЛАСОВАНО:

Заместитель директора ДОПиО

Руководитель группы РСП

ДОПиО БПиМ


Начальник отдела ЭЗСиН


Руководитель ГТН отдела ЭЗСиН


Ведущий специалист ГТН отдела ЭЗСиН


Старший специалист ГТН отдела ЭЗСиН


Специалист АФГ г. Янгиюль


 Линкевич Д.Н.


 Собиров Э.И.

 Сидиков Р.Б.

 Абдиганиев Е.Р.

 Беженцев А.В.

 Полатов Н.Н.

 Низамиев Р. III.